

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



***Journal of Preschool  
Education***

***The faculty of pre-school  
education***

## MORFEMA. MORFEMANING TURLARI.

Tursunboyeva Sohiba  
O'ralova Muxlisa

**Anatatsiya:**Bu maqolada tilshunoslik bo'limlaridan biri Morfemika hamda uning turlari morfemalar, affiksal morfemalar, ularning ma'nolari haqida qisqacha malumot beramiz.

**Kalit so'zlar:**Morfemika ,morfema, affiksal morfema ,o'zak morfema ,so'z yasovchi morfema, shakl yasovchi morfema , so'z o'zgartiruvchi morfema,sodda affikslar, murakkab affikslar .

Morfemika tilshunoslik bo'limlaridan biri bo'lib, morfema haqida o'rganadigan fan.Morfemikada so'zning eng kichik ma'no anglatmaydigan qismini o'rganamiz.Shu ma'no anglatmaydigan qismi morfema deyiladi. Morfemalar har bir so'z doirasida o'ziga xos ma'no ifodalovchi birlikdir.Ular bo'laklarga bo'linishi ma'no yo'qolishiga olib keladi .Demak morfema so'zning eng kichik ma'no anglatmaydigan qismidir.

Morfemalar 2ga bo'linadi :

O'zak morfema

Affiksal morfema

O'zak morfema-nutqda yakka holda qo'llanilishi mumkin bo'lgan va mustaqil lug'aviy ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan morfemalar.

Masalan:ishchi,ishla,ishchan,ishsiz so'zlaridagi ish o'zak morfema hisobladi.

Affiksal morfemalar esa – nutqda yakka holda kelmaydigan ,lug'aviy ma'no ifodalamaydigan, o'zakka qo'shilib ,leksik yoki grammatik ma'no shakillantirishda ishtirot etadigan morfemadir.

Masalan:daraxtzor bunda daraxt so'ziga zor affiksini qo'shsak lug'aviy ma'nosini o'zgaradi.

Masalan :daraxtlarimiz shu kabi ko'rinishda affiksal qo'shimcha qo'shganimizda so'zimiz grammatik ma'no jihatdan o'zgargan bo'ladi.

Affiksal morfemalar vazifasiga ko'ra quydagi uch turga bo'linadi:

So'z yasovchi morfemalar

Shakl yasovchi morfemalar

So'z o'zgartiruvchi morfemalar

So'z yasovchi affikslar- o'zakka qo'shilib,yangi ma'noli so'z hosil qiladi.Ular ko'pincha bir turkumdag'i so'zlardan boshqa bir turkumga mansub yangi so'z yasaydi.

Masalan:yoz,qish - ot yozgi , qishki – sifat

Shuningdek ular bir so'z turkum doirasida ham so'z yasashi mumkin.

Masalan: bog' – bog'bon , ish – ishchi

So'z yasovchi afikslar birdan ortiq qo'shimchalar qo'shilib yangi so'zlar hosil qiladi va bunday affikslar tilning leksik qatlamini boyitadi.

Masalan:bog'-bon-chi-lik

Shakl yasovchi affikslar - (lug'aviy shakl yasovchilar) . Ular so'zing lug'aviy ma'nosini bir ozgina o'zgartirib ,unga qo'shimcha ma'no yuklaydigan , ammo hech qanday yangi so'z hosil qilmaydigan morfemalardir .

Masalan: kitoblar,kitobcha kattaroq , kattagina

So'z o'zgartiruvchi affikslar -so'zlarning nutqda boshqa so'zga nisbatan sintaktik munosbatini , aloqani ko'rsatuvchi affiks morfemalardir. Ya'ni ular so'zga qo'shilganda kelishik , egalik, shaxs- son qo'shimchalarida o'zgaradi .

Masalan :kuzning havosi ,kitobni o'qidim

Affikslar tuzulishiga ko'ra 2 turga farqlanadi.

Sodda affikslar

Murakkab affikslar

Sodda affikslar faqat bir affiks qo'shimcha qo'shimcha qo'shilish orqali yuzaga keladi.

Masalan :gulli , paxtazor

Murakkab affikslar esa ikki yoki undan ortiq affiks qo'shimchalar birikishi orqali yuzaga keladi.

Masalan : hunarmandchilik

Ba'zan affikslar morfemalarning odatdag'i tartibida o'zgarishlar yuz berishi ham mumkun.

Masalan :aka+m+lar=akalarim ko'r +di+ng+lar=ko'rdilaring

Morfema termenini tilshunoslikka polyak-rus tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene. Lekin morfemaning I..A.boduen de Kurtane talqini bilan ushbu hozirgi talqin o'rtasida bir qator farqlarni uchratish mumkun .

**Adabiyotlar ro'yhati:**

- 1 S Rahimov , B Umirzoqov , „Hozirgi o'zbek adabiy tili” , Toshkent-2003 ,68-bet O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
- 2 O'zbek tili grammatikasi 1- tom G'.Abdurahmonov va boshqalar 1972, 216- bet.
- 3 A'zim Hojiyev, Ne'mat Mahkamov ma'ruzlari
- 4.,Zamonaviy o'zbek tili'' H.G'.Ne'matov va boshqalar 2008